

5/2025,
sentyabr-
oktyabr
(№ 00079)



MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA SIYOSATI DOIRASIDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

Email: d.nasirxodjayeva@tsue.uz

Soxibjonova Sug‘diyona Soxibjon qizi

Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi Iqtisodiyot va boshqaruv kafedrasida assistenti

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/713

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish va investitsiyalash borasida olib borilayotgan bir qator islohotlar tahlili olib borilgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga kiritilayotgan investitsiyalar, yashil texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik masalalari o‘rganilgan. Statistik ma‘lumotlar asosida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan loyihalar samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish, investitsiya, yashil moliya, yashil o‘shish, yashil texnologiya, qayta tiklanuvchi energiya, quyosh paneli, shamol turbinalari, diversifikatsiya, elektr stansiyalari.

РАЗВИТИЕ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ В РАМКАХ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ НАШЕЙ СТРАНЫ

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна

Профессор Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н.

Сохибжанова Судийона Сохибжон кизи

Ассистент кафедры экономики и управления Академии труда и социальных отношений

Аннотация

В данной статье анализируется ряд реформ, реализуемых в Узбекистане в сфере финансирования и инвестирования в «зелёную» экономику. В частности, рассматриваются вопросы инвестиций в возобновляемые источники энергии, внедрения «зелёных» технологий, сотрудничества с международными финансовыми организациями. На основе статистических данных освещается эффективность проектов, реализованных за последние годы.

Ключевые слова: Устойчивое развитие, инвестиции, зеленое финансирование, зеленый рост, зеленые технологии, возобновляемые источники энергии, солнечные панели, ветряные турбины, диверсификация, электростанции.

DEVELOPMENT OF THE GREEN ECONOMY WITHIN THE FRAMEWORK OF OUR COUNTRY'S INVESTMENT POLICY

Nasirkhodjayeva Dilafroz Sabitkhanovna

Professor, Tashkent State University of Economics, D.Sc. (Economics)

Sokhibjonova Sugdiyona Sokhibjon qizi

Assistant, Department of Economics and Management Academy of Labor and Social Relations

Abstract

This article analyzes a number of reforms being implemented in Uzbekistan in the field of financing and investing in the green economy. In particular, the issues of investments in renewable energy sources, the use of green technologies, and cooperation with international financial organizations are studied. Based on statistical data, the effectiveness of projects implemented in recent years is highlighted.

Key words: Sustainable development, investment, green finance, green growth, green technology, renewable energy, solar panels, wind turbines, diversification, power plants.

Kirish

So'nggi yillarda dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanishning taraqqiyot kafolati bo'lgan "yashil" iqtisodiyot yo'lidan bormoqda. XXI asrda yer yuzi aholisining tez sur'atlarda oshishi natijasida yuzaga kelayotgan resurslar cheklanganligi bilan bog'liq muammolar, muntazam ravishda iqtisodiyotning turli sohalarida yuzaga kelayotgan inqirozlar tufayli "yashil" iqtisodiyotga o'tish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Yashil iqtisodiyot – bu mavjud bo'lgan resurslardan samarali foydalanib, jamiyat farovonligini saqlagan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning yangi modelidir.

O'zbekistonda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalar asosiy drayver hisoblanib, buning natijasida ekologik toza texnologiyalar joriy etilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligi bilan bog'liq loyihalar amalga oshirilishi, sanoat va qishloq xo'jaligida ekologik xavfsiz ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi, "yashil ish o'rinlari" yaratilishi, xalqaro "yashil obligatsiyalar" bozoriga kirish kabi maqsadlar qo'yilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 4-oktabr 2019-yildagi PQ-4477-son qarori bilan "2019 - 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", 2-dekabr 2022-yildagi PQ-436-son qarori bilan "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar" dasturi tasdiqlandi. Unga ko'ra davlat investitsiyalari, energetika, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda "yashil" tamoyillarni tatbiq etish bo'yicha harakatlar rejalashtirilgan.

UNEP ning "Yashil iqtisodiyot sari: barqaror rivojlanish va qashshoqlikni qisqartirish yo'llari" ("Towards a Green Economy: Pathway to Sustainable Development and Poverty Eradication") hisobotida yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari, investitsiyalar yo'nalishlari va mamlakatlar uchun strategik ahamiyati yoritilgan bo'lib, "yashil iqtisodiyot"ga quyidagicha ta'rif beriladi: "Yashil iqtisodiyot – bu inson farovonligini va ijtimoiy tenglikni oshiradigan, shu bilan birga ekologik xavflar va tabiiy resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiyotdir".

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14-yanvar 2023-yildagi 16-son “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq quyidagi asosiy maqsadlar bo‘yicha islohotlar amalga oshirilmoqda:

- iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish;
- xususiy sektor va xorijiy investitsiyalarni jalb etish;
- hududiy rivojlanishni ta‘minlash;
- yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlikni rivojlantirish;
- infratuzilmani rivojlantirish;
- innovatsiyalar va ilm-fan yutuqlarini joriy etish;
- ijtimoiy sohani modernizatsiya qilish;
- davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish.¹

Yuqorida tahlil qilingan adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. Prezident va Vazirlar Mahkamasi qarorlarida iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash, innovatsiya va ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash vazifalari aniq belgilab berilgan. Shu asosda UNEP tomonidan ishlab chiqilgan “Yashil iqtisodiyot sari” konsepsiyasidagi tamoyillar milliy strategiyalarda izchil tatbiq etilayotgani kuzatiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasida ma‘lumotlar qonunchilik hujjatlari, Milliy statistika qo‘mitasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma‘lumotlari, ilmiy adabiyotlar va xalqaro manbalardan olindi. Ma‘lumotlar statistik tahlil va taqqoslash usuli orqali tahlil qilindi. O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonida erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda duch kelinayotgan muammolar ham o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ta‘sir etuvchi eng muhim omillardan biri – energetik barqarorlik. Yashil energetikaga o‘tish mamlakatimiz uchun ham iqtisodiy, ham ekologik, ham geosiyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu birinchi navbatda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishga qaratilgan loyihalarning qo‘llab-quvvatlanishiga bog‘liq. Chunki yashil energiya ulushining ortishi kelgusida elektr energiyasi tannarxini ham pasaytiradi.


Respublikada elektr energiyasining katta qismi issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Texnologiyalarning eskirganligi va elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun tabiiy gaz yoqilg‘isining yetishmasligi so‘nggi yillarda muntazam kuzatilayotgan anomal issiq va sovuq kunlarda minglab tadbirkorlik subyektlarining tarmoqdan uzilishi holatlari iqtisodiyotda ishlab chiqarishning sekinlashishiga sabab bo‘lmoqda.

Joriy yilda Belgiyaning Bryussel shahrida o‘tkazilgan “Global Gateway” forumida O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston Energetika vazirliklari hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Yevropa investitsiya banki o‘rtasida “Qambarota GES-1” loyhasini moliyalashtirish bo‘yicha anglashuv memorandumlari imzolandi. Ushbu loyiha orqali 5,4 mlrd kub metr ga teng suv ombori va 1860 MVt quvvatli gidroelektr stansiyasini ishga tushirish kutilmoqda. Natijada yiliga o‘rtacha 5,6 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab


chiqarish imkoniyati yaratiladi. Bu loyihalarni amalga oshirish orqali nafaqat barqaror energiya manbaiga, balki mintaqaviy hamjihatlikka ham erishiladi.

O‘zbekistonda energetika tizimini diversifikatsiya qilish borasida oxirgi besh yilda umumiy qiymati qariyb 30 mlrd dollarlik 50 ta bitim imzolangan. Ayni paytda respublikada quvvati 4682 MW bo‘lgan 12 ta quyosh fotoelektr stansiyasi va 5 ta shamol elektr stansiyasi yashil energiya ishlab chiqarmoqda.

Quyidagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, yil boshidan beri 9 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan bo‘lib, bu 7,5 mlndan ortiq xonadonning 10 oylik yoki 6 mln xonadonning bir yillik elektr energiyasi iste’molini tashkil qiladi. Ushbu “yashil texnologiyalar”ning ishlash samaradorligini oshirish maqsadida ularni changdan muntazam tozalash vazifasini robotlar bajarmoqda. Eng e’tiborlisi, robotlarning o‘zi ham quyosh panellari orqali quvvatlanadi. Bundan tashqari, 2 mlrd 730 mln kub metr tabiiy gaz tejaldi va atmosferaga chiqishi mumkin bo‘lgan 4 mln tonna zararli moddalar oldi olindi.²



1-rasm. O‘zbekistonda quyosh elektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi miqdori (milliard kilovatt soat).



2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi (trln so'm).

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,7 barobarga oshgan hamda 2025-yil yanvar-iyun oylarida 2024-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 29,8 trln so'm ko'p investitsiya o'zlashtirilgan.³

1-jadval

Moliyashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da	
			2024-yil	2025-yil
Markazlashgan investitsiyalar:	26454,2	96,3	10,6	9,7
Respublika budjeti	9522,2	91,1	4,1	3,5
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari	671,2	35,5	0,7	0,2
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	16260,8	107,5	5,8	6,0
Markazlashmagan investitsiyalar	246975,7	106,6	89,4	90,3
Korxonalar mablag'lari	44020,2	107,9	15,7	16,1
Aholi mablag'lari	17276,6	115,3	5,7	6,3
To'g'ridan-to'g'ri, boshqa va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	179047,4	104,9	65,9	65,5
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	109836,3	132,2	32,1	40,2

Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	6631,5	123,4	2,1	2,4
--	--------	-------	-----	-----

2025-yil yanvar-iyun oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirilgan hajm 26,5 trln so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 96,3 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 9,7 % ga yetdi.⁴

O‘zbekiston - Saudiya Arabistoni o‘rtasida samarali hamkorlik jadal rivojlanib, o‘zaro savdo hajmi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar va qo‘shma korxonalar soni ortmoqda. Qo‘shma loyihalar hajmi 27 milliard dollarga yetdi. “ACWA Power” kompaniyasi bilan energetika sohasida 15 milliard dollarlik qator yirik loyihalar amalga oshirilmog‘da. Pemco kompaniyasi Samarqand viloyatida quvvati 200 MVt bo‘lgan yangi gaz-porshenli IES qurishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda har qanday investitsiya katta ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, xorijiy sarmoya ham yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar uchun qator yo‘nalishlarda o‘z hissasini qo‘shmoqda:

- 1) moliyaviy resurs bilan ta‘minlash;
- 2) texnologik transfer;
- 3) kadrlar malakasini oshirish;
- 4) ekologik barqarorlikni ta‘minlash
- 5) iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish.⁵

2-jadval

O‘zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokida amalga oshirilayotgan “yashil” loyihalar

No	Loyiha nomi	Hudud	Quvvati, hajmi	Loyiha qiymati	Hamkor tashkilotlar
1.	Voltaliya quyosh elektr stansiyasi	Xorazm viloyati	100 MW	≈100 mln AQSH dollari	Voltalia (Fransiya), Jahon banki
2.	ACWA Power shamol va quyosh loyihalari	Buxoro, Qashqadaryo, Chirchiq	1500 MW	≈1 mlrd AQSH dollari	ACWA Power (Saudiya Arabistoni)
3.	Yashil vodorod ishlab chiqarish loyihalari	Toshkent viloyati	20 MW elektrolizyor, 52 MW shamol	≈50 mln AQSH dollari	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, O‘zbekiston Respublikasi
4.	“Waste-to-Energy”	Toshkent shahri	4,7 mln tonna	≈1,3 mlrd AQSH dollari	Xitoy va Korea kompaniyalari

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti

⁵ www.oecd.org

	chiqindilarni energiyaga aylantirish		chiqindi/2,1 mlrd kW		
5.	Batareya energiya saqlash tizimi (BESS)	Sirdaryo viloyati	250MWs	≈120 mln AQSH dollari	Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki

Yuqorida keltirilgan “yashil” loyihalar O‘zbekiston energetika tizimining diversifikatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy tashkilotlar hamda boshqa hamkor davlatlarning kafolatli moliyaviy yordami mamlakat uchun yirik investitsion oqimni anglatadi. Natijada, ishlab chiqarilayotgan energiya miqdori, elektr energiyasi ta’minotiga hamda iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtirilayotgan yashil vodorod ishlab chiqarish loyihalari Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib “yashil vodorod” ishlab chiqarishga qaratilgan. Mazkur loyiha natijasida energiya manbalarining dekarbonizatsiyasi (uglerodsiz energiya ishlab chiqarish) yo‘lga qo‘yiladi. Bu esa O‘zbekiston uchun innovatsion va ekologik barqaror iqtisodiyot sari muhim qadamlardan hisoblanadi. “Waste-to-Energy” chiqindilarni energiyaga aylantirish loyihasi atrof-muhitni tozalash, chiqindi poligonlari yukini kamaytirish kabi muammolarni yechish jihatidan dolzarb hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekiston Respublikasi oxirgi yillarda iqtisodiy o‘shishni rivojlantirish uchun ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan siyosat olib bormoqda. Mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish borasida bir qancha yutuqlarga erishish bilan bir qatorda bu jarayonni moliyalashtirish va investitsiyalash jihatdan ayrim tizimli muammolarga ham duch kelmoqda.

Mahalliy banklarning yashil loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati yetarli darajada emasligi xorijiy investorlarga bo‘lgan ehtiyojni keltirib chiqarmoqda. Bundan tashqari, yashil loyihalarni sertifikatlash, ularning ekologik samaradorligini o‘lchash va natijalarni xalqaro standartlar asosida baholash tizimi to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa xorijiy investorlarga loyiha xavflarini to‘g‘ri baholashda qiyinchiliklar tug‘dirib, investitsiya qarorlari sekinlashtirishi mumkin.

Yashil energetika sohasida ishlatiladigan “yashil texnologiyalar” asosan xorijdan import qilinadi. Bu amalga oshirilayotgan loyihalarning qiymatini oshirib, iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, malakali mutaxassislar yetishmasligi ham jarayonni sekinlashtiradi. Aholi va tadbirkorlik subyektlari yashil iqtisodiyot g‘oyalari va islohotlari bo‘yicha yetarli axborotga ega emas. Tadbirkorlarning energiya tejamkor texnologiyalarning samaradorligini anglab yetmaganligi ham ichki talab shakllanishini qiyinlashtiradi.

Yashil iqtisodiyot sohasida yagona qonun ishlab chiqib, unda barcha yashil loyihalar tasnifi, moliyalashtirish shartlari, investorlar va iste’molchilar uchun kafolatlar belgilab qo‘yilishi ushbu sohani yanada institutsional rivojlantirish uchun asos bo‘ladi. Energiya tejamkor texnologiyalar, yuqosh panellari, chiqindi qayta ishlash tizimlari uchun past foizli yoki imtiyozli kreditlar taqdim etish, davlat-xususiy sheriklik asosida yashil loyihalarni

qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, yirik xalqaro moliyaviy tashkilotlar va kompaniyalar bilan uzoq muddatli strategik aloqalarni yo'lga qo'yish, quyosh batareyalari, shamol turbinalarini mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, “yashil kasblar” bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish, aholini iqtisodiy ongini shakllantirish, yashil iqtisodiyotning monitoringini olib borish va ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish kabi chora-tadbirlar yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtiradi hamda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat O'zbekiston uchun ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan muhim bosqich, balki butun dunyo hamjamiyati uchun ham katta ahamiyatga egadir. Yashil investitsiyalarni jalb etish, ularni samarali boshqarish va milliy iqtisodiyotga integratsiya qilish mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xashimova S.N. Yashil iqtisodiyot. Darslik. -T.: “Ma'rifat”, 2024. 224 bet.
2. Drawdown: The Most Comprehensive Plan Ever Proposed to Reverse Global Warming Paperback – Illustrated, April 18, 2017
3. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali
4. www.worldbank.org
5. www.acwapower.com
6. www.ebrd.com
7. www.reuters.com
8. www.adb.org
9. www.lex.uz
10. www.stat.uz